

MULLA QIRG'IZ MADRASASI TARIXI

Zohidjon Tolibjon o'g'li Abdullayev

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi, talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7685084>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'z davrida uchun o'rta – maxsus va oliy ta'lim dargohi hisoblangan, yurtimizdagi ko'plab ilmiy markazlaridan biri bugungi kunda Namangan shahrida joylashgan ziyo maskanlaridan biri bo'lgan Mulla Qirg'iz madrasasining me'morchilik uslubi, qurilishidagi o'ziga xos usullar, bugungi kungacha bo'lgan madrasa tarixi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Madrasa, Narshaxiy, Mulla Qirg'iz Mashrabboy o'g'li, Ismatullo Oxund, Karvonsaroy, Namangan shahri, Mullaboy xoji, O'sh viloyati

Annotation: In this article, the architectural style of the Mulla Kyrgyz madrasa, which was considered a secondary-special and higher education center for its time, and one of the many scientific centers in our country, which is one of the centers of intellectuals located in the city of Namangan today, is discussed. information about special methods, the history of the madrasa until today.

Keywords: Madrasa, Narshahi, son of Mulla Kyrgyz Mashrabboy, Ismatullah Okhund, Caravansaroy, Namangan city, Mullaboy Khoji, Osh region

Madrasa – oliy o'quv dargohi. Diniy ilmlar qatorida matematika, notiqlik san'ati va mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik, falsafa, kalligrafiya, musiqa, tibbiyot, geografiya, astronomiya va boshqa ilmlar bo'yicha ta'lim beriladigan o'quv binosi. Madrasa so'zi arab tilidan olingan "Dars o'tiladigan joy" degan ma'noni bildiradi. Bu atama ta'lim berish uchun maxsus qurilgan o'quv binolarini ifodalaydi. X—XII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda tarqaldi. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytib o'tilgan 937-yilgi yong'inda zarar ko'rgan Farjak madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo'lgan. Madrasa muassasalari madrasani ta'minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta'mirlash uchun ajratilgan, ma'lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan. Madrasaga maktabxonani tugatganlar



qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo'lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo'lgan kunduzgi bo'lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo'lim talabalari toifalariga ajratilgan.³¹ Yurtimizdagi ko'plab yirik va ko'rkam madrasalardan biri bu Mulla Qirg'iz madrasasidir. Namangan shahriga ajoyib husn berib turgan arxitektura yodgorliklaridan biri 1910-yilda qurilishi boshlanib, 1912 yilda tugallangan Mulla Qirg'iz madrasasi nihoyatda qisqa fursatlarda qurib bitkazilgan bu inshoot 41 xujra va 3 ta gumbazdan iborat. Madrasa pishiq g'ishtdan ark uslubida qurilgan. Bu esa qadimiy O'rta Osiyo me'morchilik an'analari mos tushadi. U g'isht terish uslubi, besh burchak shaklida ishlanganligi bilan ajralib turadi hamda bino peshtoqidagi koshinkorlarning nafisligi bilan kishini maftun etadi. Yodgorlikni bosh peshtoqi ikki qavatli qilib qurilgan.³²

1903 yilga kelib, Namangan va uning atrofidagi tumanlarda 16 ta paxta tozalash zavodlari qurildi. Shunday zavodlardan birining xo'jayini Mulla Qirg'iz Mashrabboy bo'lgan. O'sha paytlarda badavlat kishilar, katta yer-mulk egalari, amaldorlar, savdogarlar o'z mablag'lariga masjid, madrasa, ko'prik kabi turli-tuman binolar bunyod ettirganlar. Mulla Qirg'iz Mashrabboy aslida O'sh viloyati, Aravon tumanidan Namanganga kelib qolgan bo'lib, o'sha yillari Namanganda yirik paxta tozalash zavodi xo'jayini va shu bilan birga, katta yer hamda mulk egasiga aylangan edi. U savobli ish qilishni mahalliy xalq orasida katta hurmatga, obro - e'tiborga erishishni niyat qilib biron bir ko'zga ko'rinarli ish qilish maqsadida o'ziga yaqin kishilardan bo'lmish Mullaboy xoji, Mulla Qozoqxon, Qozoqboyvachcha, Otakarvon va Mulla Madamin Oxunlar bilan yig'ilishib, maslahat tarzida kengash o'tkazib, Madrasa qurmoqchi ekanligini aytadi. Tabiiyki, bu fikr o'z yaqinlariga ma'qul bo'ladi. Madrasa shaxsan usta Mulla Qirg'izning chizgan loyihasiga asosan qurilgan bo'lib, Chorsu maydonidagi hozir buzib tashlangan «Ayritosh», «Ayritom» masjidi yonida qo'sh ko'rinishida joylashadi. Madrasani qurgan me'mor usta Mulla Qirg'iz Namangan shahrining Mag'zum Eshon mahallasidagi xonadonlardan birida usta Ibrohim oilasida 1846-yilda tug'ilgan. Ungacha tug'ilgan farzandlarining hammasi nobud bo'lavergach, ota-onasi unga ko'z tegmasin degan maqsadda Qirg'iz deb ism qo'yishadi. Usta Qirg'izning bobosi va otasi ham taniqli ustalar bo'lishiga qaramay, Qirg'izboyni Ismatullo Oxund degan taniqli me'morga shogirdlikka beradilar. Qirg'izboy yoshligidanoq bir so'zlik, serg'ayrat edi. 15-16 yoshlaridanoq binokorlik kasbi sirlarini o'rganish bilan diniy va dunyoviy ilmlarni ham o'zlashtirgan. Mulla Qirg'iz me'mor Ismatullo Oxund bilan turli imoratlar qurishda

³¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madrasa>

³² И. Юсупов, Э. Мирзаалиев Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. Наманган – 2013. 6-36

qatnashib, xalq me'morlari asrlar davomida erishgan yutuqlari, ajoyib me'moriy obidalarni qurilish uslubini qunt bilan o'rgandi. U ko'pchilik o'zbek ustalari kabi quriladigan bino tarxini chizib, shu asosda zarur qurilish materiallari va qancha ishchi kuchi zarurligini hisoblab aniqlar, binokorlik chizmalarini yaxshi bilgani uchun osonlik bilan murakkab me'moriy obidalar loyixasini yaratar edi.

Madrasa qurilishi 1912 yilda tugallangan va o'z davrining o'rta-maxsus va oliy ta'lim beruvchi diniy o'quv muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan. Lekin shunday bo'lsada, 1912 yilda Madrasa ishga tushirilib, birinchi tolibi ilmlar o'qishga qabul qilindi. Madrasaning turli sarf-xarajatlarini qoplash, tolibi ilmlar, mudarrislarining ta'minotini yaxshi yo'lga qo'yish maqsadida madrasa tasarrufiga yerlar, do'konlar, karvonsaroy va shunga o'xshash yana boshqa narsalar vaqf qilindi. Har bir xujrada uning katta-kichikligiga qarab 2-4 tadan tolibi ilmlar yashab, ta'lim olishgan, kichik gumbazli ikki xona darsxona vazifasini bajargan. Katta gumbazli xona esa masjid va xonaqoh vazifasini o'tagan. Bunda besh vaqt namoz o'qilib, ma'ruzalar, va'zlar va pandu nasixatlar tinglangan.

Madrasa binosi tarixda notekis besh qirrali kurinishga ega bo'lib, uning bunday shaklda loyihalaniishiga u joylashgan yer maydoni notekisligi sabab bo'lgan. Yodgorlikning bosh fasadi ikki qavatli, qolgan qismi esa bir qavatli qilib qurilgan. Xovliga kirilgach, o'ng tomonida gumbazli darsxona hamda masjid joylashgan. Madrasa binosini bezatishda asosiy e'tibor bosh fasadga qaratilib, u ikki qavatli qilib, o'rtasida baland va ko'rkam peshtoq, uning ikki yonida ikki qavatli ravoqli hujralarga ega bo'lib, burchagida esa aylana shaklidagi guldastalar tartibli joylashtirilgan. Peshtoq timpani, yarim sakkiz qirrali ravoq ichi, guldastalari turli rangdagi koshinlar bilan bezatilgan. Mulla Qirg'iz madrasasining umumiy foydali maydoni 600 kvadrat metr yerni tashkil etadi. Xujralar 43 ta 3 ta katta gumbazi bor. Hovli va gumbazlarda bo'rttirib, arabiy yozuvda Qur'on oyatlari bitilgan. Hovliga qaragan g'arbiy tomonda bo'rtma g'isht yozuvlar bor. Mulla Qirg'iz madrasasi rejada to'g'ri bo'lmagan besh burchaklidir. Atrof aylanasi kirish qismida ikki qavatli qo'shimcha qurilmasi bor. Xujralar bilan o'ralgan. Madrasaning o'ng tomonidagi darsxona va masjid ustiga gumbazlar ishlanib, xona ichiga yorug'lik tushib turishi uchun darchalar qo'yilgan.³³

«Boniyy Mullo Kirgiz Oxund ibn Mashrabboy tujjor (ujriy 1330 yil): usto Mullo Qirgiz ibn Ibrohim me'mor». Mazkur jummalarning yuqori qismida o'rtaga nasta'liq yozuvda chiroyli qilib bir bayt hikmatli so'z yozilgan. Unda shunday deyilgan:

Zavarjad toqi zar uzra yozilmish xati zar bilan,

³³ Абдулла Жаббор Наманган Вилояти – Наманган. 2011. Б-202

Karam ahlini ehsonidan o'zga qolmadi boqiy.

Ya'ni, Zabarjad (shaffof och qimmatbaho tosh) dan yasalgan oltin toq (gumbaz) ustiga oltin xat bilan yozildi: Karam va saxovat ahlining qilgan ehsonidan boshqa narsa (bu dunyoda) boqiy (abadiy) qolmaydi. Darhaqiqat, Mulla Qirg'iz Oxund tomonidan qurdirilgan Madrasa undan yodgorlik sifatida qolib, uning nomini abadiylashtirib turibdi. Peshtoq yuzasi hamda uning ichiga choksiz qilib terilgan sirkorlik usuli qo'llanilgan bo'lib, u Farg'ona vodiysi yodgorliklariga xos bo'lgan oq, zangori, havorang, sariq, ko'k va och ko'k rangdagi koshinlarni tashkil etadi. Ayniqsa, madrasaning o'ng tomonida joylashgan darsxona hamda masjidning qurilish usuli, tashki xamda ichki me'moriy ko'rinishi diqqatga sazovordir. Ular ustiga bahaybat gumbazlar ishlanib, gumbazlar ustiga esa, xona ichkarisiga yorug'lik tushib turishi uchun xashtaklar o'rnatilgan. Ularni hovli fasad devorlari yuqorisiga hamda gumbaztag ostiga g'ishtlardan bo'rttirib arabiy yozuvda Qur'on oyatlari kufiy uslubda bitilgan.

Mulla Qirg'iz madrasasining tiklanishida Mirzadadavoy, Toshboltaboy va boshqa ustalar tomonidan tayyorlangan to'g'ri burchak shaklidagi g'ishtlar, Namangansoyning qirg'og'ida joylashgan Oydinko'l hududiga g'ishtxumdon qurib, yetkazib berib turishgan. Madrasa peshtoqiga yopishtirilgan barcha koshinlarni Mulla Mamasiddiq, Abdurahmon, Abdukaxxor va Mamadali kulollar yodgorlik hovlisida xumdon qurib pishirib tayyorlaganlar. Madrasaning gumbazlari, xujralari qadimiy O'rta Osiyo me'morchiligiga xos an'analarga muvofiq (ravok) uslubda pishiq g'ishtdan ishlangan. Old fasadi esa, shaharning qadimiy Uychi ko'chasida, shaxar hokimi Saidqulibek tomonidan qurilgan Saidqulibek madrasasiga qaratib barpo etilgan. (Bu Madrasa binosi XX asrning 40-yillarida buzib tashlangan).

Madrasa hovlisini hozirda 41 xujra va 3 ta gumbaz o'rab turadi. Xujralar soni aslida ko'prok bo'lgan va ular sho'rolar davrida turli maqsadlarda foydalanishga moslashtirish jarayonida buzib tashlangan. Madrasa aslida ikki qavatli qilib qurilishi lozim edi. Lekin old fasadigina ikki qavatli qilib qurilgandan keyin qurilish ishlari to'xtab qolgan. Madrasa gumbazlarining ishlanishi o'ziga xos uslub bilan bajarilganki, bu ustaning mahoratidan darak berib turibdi. Gumbazlarning ichi aslida o'yma terrakota va naqshlar bilan bezatilishi, go'zal harflar bilan oyatlar yozilishi kerak edi. O'sha paytdagi chor hukumatining mustamlaka o'lkalarida olib borayotgan siyosati oqibatida kelib chiqqan alg'ov-dalg'ovlar tufayli Madrasa qurilishi ham nihoyasiga yetkazilmay qolib ketdi. Tarixiy manbalarga, arxiv fotosuratlariga, nuroniy qariyalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, o'z davrida madrasa tevarak – atrofida ko'plab me'moriy inshootlar: Madrasa, masjid, karvonsaroy, hammom,

minora, savdo rastalari, hovuz, maqbara va boshqa ko'plab obidalar mavjud bo'lgan. XX asrning 30-yillarida boshlangan yodgorliklarga qarshi kurash, mamlakatdagi siyosiy ahvol shaharni qayta tiklash, zilzilalar va boshqa turli sabablarga ko'ra, Mulla Qirg'iz madrasasi ro'parasidagi ko'p gumbazli mahobatli Saidqulibek Madrasa binosi butkul buzib tashlandi. Keyinchalik esa, madrasa binosiga qarashli va unga tutash bo'lgan vaqf hovli, hammom, hovuz, minora, masjidlar turli idora va tashkilotlarga foydalanish uchun berib yuborildi. Ulardan to'g'ri foydalanmaslik, o'zboshimchalik bilan qo'shimcha qurilishlar, o'zgartirishlar qilish uzoq vaqt mobaynida qarovsiz holda yotishi natijasida yaroqsiz holga kelib qolgan bu yodgorliklarning ba'zilari buzib tashlandi, qolganlari esa yarim vayrona holga keldi. Madrasa hovlisidagi sardoba esa shu yillari buzib tashlandi.

1918–yilga kelib bolsheviklar hukumati Namanganda o'z hukmronligini boshladi va oradan hech qancha vaqt o'tmay, 1920 – yildan boshlab madrasa yopildi, bino turli maqsadlarda foydalanib kelindi. Shuni ta'kidlash kerakki, Madrasa qurilgandan buyon uning birinchi ta'miri 1972–yilda, ya'ni, oradan 60 yil o'tgach bajarildi. Yodgorlikni ta'mirlash arafasida, Madrasa xujralarida joylashgan 14 dan ortiq tashkilot boshqa joyga ko'chirilib, xonalar bo'shatildi. Mazkur ta'mir ishlarini usta Mulla Q'irg'izning shogirdi, usta Fozil Namangoniyning o'g'li usta Turg'un Fozilov bajardi. Bunday qayta tiklash ishlari jarayoni 1974 yilgacha davom etdi va buzilib ketgan minora asl holiga keltirildi. Xujralar, gumbazlar ichi va madrasaning tashqi ko'rinishlari hammasi ta'mirlandi, katta gumbazli xonaqohga kirish eshigi yonidagi devorlarga g'ishtdan bo'rttirib yozilgan «Kalimai tayyiba» ning buzib yuborilgan qismi ham to'la qaytadan tiklandi. 1985 yilda madrasaning ikkinchi marta ta'miri boshlandi. Ichki qismidagi, ikkinchi qavatda mavjud bo'lgan, ammo keyinchalik buzib tashlangan ayvonlar o'z holiga keltirilib, qaytadan qurildi. Adabiyot muzeyiga aylantirildi. Madrasaning uchinchi ta'miri O'zbekiston Respublikasi Mustakillikka erishgandan so'ng, 2004–yil oxirlarida boshlandi. Bunda madrasaning poydevorlari ochilib, barcha xujralar va devorlar, xonaqohu darsxonalar ta'mirlanib, deraza va eshiklari yangilandi. Binoning old qismidagi ko'cha hududi obodonlashtirildi.³⁴

O'tgan asrning dastlabki o'n yilligida usta Mulla Qirg'iz Ibrohimboy o'g'li tomonidan barpo etilgan madrasa tarhiga o'zgacha yondashilgani bois boshqa obidalardan ajralib turadi. Bino to'g'ri to'rt burchakli, pishiq g'ishtdan tiklangan. Binoning bel qismida g'isht sirkorligi usuli qo'llanilgan. U Farg'ona vodiysi

³⁴ Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. Б-56

obidalariga xos ochko'k, yashil, havorang, kulrang va oq rangda. Hovliga qaragan g'arb tomondagi bo'rtma g'isht yozuvlari boshqa obidalarda uchramaydi. Sinchiklab qarasangiz, madrasa to'g'ri bo'lmagan besh burchaklik shaklida ekanini sezasiz. Uning qurilishga oid yana bir qiziqarli ma'lumot: madrasa uchun ishlatilgan g'ishtlar shu yerning tuprog'idan quyilib, hovliga o'rnatilgan xumonda pishirilgan. Ajablanarlisi, uning sifati, pishiqligi bugungi ishlab chiqarilayotgan g'ishtlardan aslo qolishmaydi.³⁵

Mulla Qirg'iz madrasasi Namangan shahar markazida saqlanib qolgan yagona me'morlik obidasi va o'tmish ota-bobolarimizning bizga qoldirgan merosi, yodgorligi sifatida bebaxo va azizdir. Bu imkoniyatdan yanada kengroq foydalanish uchun maktab o'quvchilari va talabalarni hamda chet ellik sayyohlarni keng ko'lamda jalb etish uchun madrasani asl holicha, zamon talablariga javob beradigan, ajdodlarimiz merosiga va yurtimizga mehr – muxabbat uyg'otadigan ulug' maskanga aylantirish zarurdir. Madrasa ma'lum muddat bozordagi savdogarlar uchun ombor vazifasini ham o'tadi. Shukrki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar tiklanib, boy ma'naviy merosimizni asrab-avaylash harakati boshlandi. Mulla Qirg'iz madrasasi ham mukammal ta'mirlanib, asl holiga keltirildi. Ayni kunlarda uning old qismida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari olib borilayotir. Bugun ushbu qadamjo nafaqat hunarmandlaru shahrimiz mehmonlari, balki yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar bilan ham gavjum.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari ro'yxati:

1. И. Юсупов, Э. Мирзаалиев Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. Наманган – 2013. Б-87
2. Абдулла Жаббор Наманган Вилояти – Наманган. 2011. Б-287
3. Рўзинов Б. , Ражабова С. , Исмоилов Ю. , Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. Б-115
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madrasa>
5. <https://meros.uz/object/mulla-qirgiz-madrasasi>

³⁵ <https://meros.uz/object/mulla-qirgiz-madrasasi>